



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI




SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2025-yilning yanvar oyi uchun
dastlabki ma'lumot)*



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 2 563,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,1 % ni tashkil etdi.

yanvar
mlrd so'm



yanvar
FHI, %






■ mlrd so'm ■ FHI %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (1 568,5 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (1 059,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





■ ming so'm ■ o'sish sur'ati, %

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2025-yil yanvar oyida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 2 455,3 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,8 % ni, tashkil etdi.



2025-yilning yanvar oyida viloyatda jami Sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (36,1 %), Jomboy tumani (7,9 %), Urgut tumani (8,4 %), hamda Samarqand (6,6 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Kattaqo'rg'on shahrida (112,4 %), Kattaqo'rg'on tumanida (112,1 %) hamda Oqdaryo tumanida (130,2 %) kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (2025-yil yanvar oyi)

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoatda 3,0 % ga, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 82,9 % ga, o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 32,6 % ga hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 4,2 % ga pasayishi kuzatildi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,1 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,9 % ni (2024-yilning yanvar oyida 0,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali 9,0 % (13,0 %), o'rta-quyi texnologiyali 17,2 % (18,0 %) va quyi texnologiyali 68,2 % (64,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,2 % (2024-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 148,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi 7,5 % (2024-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 77,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 25,9 % (2024-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 41,9 % (2024-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 107,4 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar	2025-yil yanvar	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	4,7	1,4	-3,3
Paxta tolasi, ming t.	5,3	3,3	- 2,0
Tozalangan paxta yog'i ming tonna.	1,4	1,8	0,4
Chaqiq tosh ming t.	24,8	8,2	-16,6
Aroq – ming litr 100 % spirt	0,0	0,2	0,2
Tamaki – mln dona	663,9	560,2	-103,7
Piva – ming litr	833,0	728,5	- 104,5

2025-yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda tozalangan paxta yog'i mahsulotlari 1,8 ming tonna (2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 32,5 % ga ko'p) hamda 8,2 ming tonna chaqiq tosh (33,0 % kam) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2025-yil yanvar oyida yirik korxonalar bo'yicha jami 132 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 38,6 % ga kamaygan.



2025-yil

132 dona

2025-yil

61,4 %

2024-yil

207 dona

2024-yil

150,0 %

2023-yil


138 dona

2023-yil

25,6 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2025-yil yanvar oyida 17 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32,0 % ga kamaygan.



2025-yil

17 dona

2025-yil

68,0 %

2024-yil

25 dona

2024-yil

113,6 %

2023-yil


22 dona

2023-yil

22,0 m.




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 9,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 107,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 7,5 % bo'lib, fizik hajm indeksi esa 77,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 191,3 mlrd so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar oyida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 4,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 131,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 5,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa, 148,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 132,2 mlrd so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar oyida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 31,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 98,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 33,2 %, fizik hajm indeksi esa, 102,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 851,9 mlrd so'mni tashkil etdi.


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 138,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 171,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 24,2 mlrd so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 20,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,4 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 111,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 574,4 mlrd so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 94,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 %, fizik hajm indeksi 94,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 66,8 mlrd so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 129,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 111,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,6 mlrd so'mni tashkil etdi.



Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 97,5 % ni, tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 %, fizik hajm indeksi 174,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 28,3 mlrd so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 153,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 104,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi 41,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 153,2 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni, fizik hajm indeksi 107,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 53,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 181,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 98,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 41,5 mlrd so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 94,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 %, fizik hajm indeksi 65,9 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 132,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 76,5 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0 % ini) tashkil etdi.


2025-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 182,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar	2025-yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	36,2	76,5	40,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Elektroenergiya



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,8 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar	2025-yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	7 057,1	5 985,5	- 1 071,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	12 897,3	17 772,3	4 875,0
Plastmassa chiqindilari, tonna	177,8	194,5	16,7


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar



Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2025-yil 1-fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 804 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 056 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 21,9 %) Samarqand shahriga, 688 tasi (14,3 %) Urgut tumaniga, 544 tasi (11,3 %) Samarqand tumaniga, 368 tasi (7,7 %) Pastdarg'om tumaniga va 247 tasi (5,1 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

65 ta

2025-yil yanvar

64 ta

2024-yil yanvar

57 ta

2023-yil yanvar



Jami faoliyat yuritayotgan (1-fevral holatiga)

4 804 ta


2025-yil

6 065 ta

2024-yil

8 295 ta




2023-yil



■ yangi tashkil etilgan ■ faoliyat yuritayotgan

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 183,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 46,2 % ni tashkil etdi.



■ mlrd so'm ■ ulushi, %